

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi 100% aksiyalar paketiga egalik qiluvchi yagona aksiyadori “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJning, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha 51-2024/12-sonli qarori**

Toshkent sh.  
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2024-yil 26-dekabr  
soat: 15:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2024-yil 26-dekabr holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya’ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2024-yil 26-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**1. Jamiyat Bosh direktori Bo Inge Andersson bilan 2021-yil 26-avgustda tuzilgan mehnat shartnomasini tomonlar kelishuviga asosan muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida.**

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori I.Abdullayev Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 26 dekabrda 80-sonli bayonnomasi bilan Jamiyat bosh direktori bilan mehnat shartnomasini muddatidan oldin 2024-yil 27-dekabrda bekor qilish masalasi ma’qullanganligini bildirib, yagona aksiyador qarori qabul qilinishini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

1. Jamiyat Bosh direktori Bo Inge Andersson bilan 2021-yil 26-avgustda tuzilgan mehnat shartnomasi muddatidan oldin 2024-yil 27-dekabrda taraflarning kelishuviga asosan bekor qilinsin.

**2. Jamiyat Bosh direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish yuzasidan kelishuvni Jamiyat nomidan imzolash vakolati Jamiyat Kuzatuv kengashi raisiga taqdim etish to‘g‘risida.**

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori I.Abdullayev Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 26-dekabrda 80-sonli bayonnomasi bilan Jamiyat bosh direktori bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi kelishuvni imzolash vakolatini Kuzatuv kengashi raisi Rafikov Abduvaqqos Voxidovichga taqdim etish masalasi ma’qullanganligini bildirib, yagona aksiyador qarori qabul qilinishini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

2. Jamiyat Bosh direktori Bo Inge Andersson bilan 2021-yil 26-avgustda tuzilgan mehnat shartnomasini tomonlar kelishuviga asosan 2024-yil 27-dekabr kunidan bekor qilish yuzasidan kelishuvni Jamiyat nomidan imzolash vakolati Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi Rafikov Abduvaqqos Voxidovichga berilsin.



**3. Jamiyat Bosh direktoriga to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi hamda ishlatilmagan mehnat ta'tili uchun kompensasiyalarni to'lab berish to'g'risida.**

Mazkur masala bo'yicha so'zga chiqqan Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori I.Abdullayev Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 26 dekabrda 80-sonli bayonnomasiga asosan Bosh direktorga to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi hamda ishlatilmagan mehnat ta'tili uchun kompensasiya amaldagi mehnat qonunchiligiga asosan to'lab berish masalasi ma'qullanganligini bildirib, yagona aksiyador qarori qabul qilinishini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

3. Jamiyat Bosh direktoriga to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi hamda ishlatilmagan mehnat ta'tili uchun kompensasiya to'lab berish Jamiyat ichki me'yoriy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga rioya etgan xolda amalga oshirilsin.

**4. Jamiyat Bosh direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida.**

Mazkur masala bo'yicha so'zga chiqqan Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori I.Abdullayev Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 26-dekabrda 80-sonli bayonnomasiga asosan Jamiyatga Bosh direktor tayinlangunga qadar Bosh direktor vazifasini bajaruvchi etib Jamiyat boshqaruvchi direktori Saidazim Mirkamalovich Gulyamov (uning roziligi va ish haqi o'zgartilmagan holda) nomzodi tavsiya etilganligini bildirib, yagona aksiyador qarori qabul qilinishini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

4. 2024-yil 28-dekabrda Jamiyat Bosh direktori vazifasini Jamiyatga Bosh direktor tayinlangunga qadar yoki Jamiyatning 2024-yil yakunlari yuzasidan yagona aksiyadorning navbatdagi yigilishiga qadar lekin 2025-yil 30-iyunidan ortiq bo'lmagan muddatga vaqtincha bajarish amaldagi boshqaruvchi direktor Saidazim Mirkamalovich Gulyamovga (uning roziligi va ish haqi o'zgartirilmagan holda) yuklatilsin va Saidazim Mirkamalovich Gulyamovga Jamiyat Ustavi hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ huquqiy hujjatlari bilan Jamiyat Bosh direktoriga berilgan (mavjud) barcha huquq va majburiyatlari berilsin (o'tkazilsin).


Ushbu qaror 2024-yil 26-dekabr kuni imzolandi.




**“UzAuto Passenger Vehicles  
Management” MChJ nomidan  
Bosh direktor**

  
B. Axunov



Jamiyat yagona aksiyadorining  
51-2024/12-sonli qaroriga kelishish varaqasi

Kiritildi:  S.Gulyamov (Boshqaruvchi direktor)

U.Qosimov	
X.Nuriddinova	
Sh.Ikramov	
S.Anarbayev	